

№ 04-41/14  
2026 y. «24» mart

“TASDIQLANGAN”

“ANOR BANK” AJ  
Kuzatuv kengashining  
2026-yil “19” mart dagi  
14 sonli yig'ilish Bayoni



## “ANOR BANK” AKSIYADORLIK JAMIYATINING DIVIDEND SIYOSATI

## MUNDARIJA

1. UMUMIY QOIDALAR .....	3
2. DIVIDENDLAR TO‘G‘RISIDAGI ASOSIY QOIDALAR .....	3
3. DIVIDEND SIYOSATINING PRINSIPLARI .....	4
4. DIVIDENDLARNI TO‘LASH TO‘G‘RISIDA QAROR QABUL QILISH TARTIBI....	5
5. DIVIDEND OLIH HUQUQIGA EGA BO‘LGAN SHAXSLAR .....	6
6. DIVIDENDLARNI TO‘LASH TARTIBI VA MUDDATLARI .....	6
7. DIVIDENDLARNI TO‘LASHGA DOIR CHEKLOVLAR .....	8
8. AKSIYADORLARNI DIVIDEND SIYOSATI TO‘G‘RISIDA XABARDOR QILISH.....	9
9. YAKUNIY QOIDALAR .....	9

## 1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur “ANOR BANK” aksiyadorlik jamiyatining Dividend siyosati (keyingi o‘rinlarda – Siyosat) O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari, Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida Nizom (2020-yil 30-iyundagi 3254-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan), Banklar kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi Nizom (2025-yil 28-oktyabrdagi 3697-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan), Qimmatli qog‘ozlar daromadlari (dividendlar, foizlar) to‘lovlarini “Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi” AJ va (yoki) investitsiya vositachilari orqali amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom (2024-yil 28-iyundagi 3523-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan), “ANOR BANK” AJ (keyingi o‘rinlarda – bank) Ustavi hamda boshqa amaldagi normativ hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Mazkur Siyosat dividendlarni belgilash va to‘lashda foydadan foydalanish sohasidagi hujjat hisoblanadi hamda dividendlar to‘lash (e‘lon qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilishning asosiy prinsiplari va tartibini, dividendlar miqdorini hisoblash hamda ularni to‘lash tartibini belgilaydi. Shuningdek, ushbu Siyosat bankning dividend siyosati to‘g‘risida aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslarni xabardor qilishga qaratilgan.

1.3. Mazkur Siyosatda qo‘llaniladigan atamalar va tushunchalar, agar ushbu Siyosatda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining aksiyadorlik jamiyatlari va qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonunchiligida belgilangan ma‘noda qo‘llaniladi.

Mazkur Siyosat maqsadlari uchun quyidagi atamalar va tushunchalar qo‘llaniladi:

**Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi** – bankning oliy boshqaruv organi;

**dividendlar** - bankning sof foydasining aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadigan qismi;

**e‘lon qilingan dividendlar** – Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilingan dividendlar;

**dividend olish huquqiga ega shaxs** – aksiyadorlarga dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilingan Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish uchun shakllantirilgan bank aksiyadorlari reyestrda qayd etilgan shaxs;

**dividendlarni to‘lash (e‘lon qilish) to‘g‘risidagi qaror** – hisobot yilining birinchi choragi, yarim yilligi, to‘qqiz oyi va (yoki) hisobot yili yakunlari bo‘yicha dividend olish huquqiga ega shaxslarga dividendlar to‘lashni amalga oshirish to‘g‘risida Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadigan qaror;

**dividendlarni to‘lash muddati** – dividendlarni to‘lash majburiyati bajarilishi lozim bo‘lgan sana yoki ushbu majburiyat bajarilishi kerak bo‘lgan vaqt davri. Dividendlarni to‘lash majburiyati ushbu sana yoki ko‘rsatilgan davr ichidagi istalgan vaqtda bajarilishi lozim;

1.4. Mazkur Siyosat bilan tartibga solinmagan masalalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va bankning ichki hujjatlari bilan tartibga solinadi.

## 2-BOB. DIVIDENDLAR TO‘G‘RISIDAGI ASOSIY QOIDALAR

2.1. Dividend bankning sof foydasining aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadigan qismidir. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qaroriga muvofiq dividendlar pul mablag‘lari, boshqa qonuniy to‘lov vositalari yoki bankning qimmatli qog‘ozlari bilan to‘lanishi mumkin.

Bankning imtiyozli aksiyalari bo'yicha dividendlarni qimmatli qog'ozlar bilan to'lashga yo'l qo'yilmaydi.

Dividendlar aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalar soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

2.2. Barcha turdagi aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilish bankning huquqi bo'lib, majburiyati hisoblanmaydi.

2.3. Dividend olish huquqiga bank tomonidan joylashtirilgan oddiy va imtiyozli aksiyalar egalari ega.

2.4. Dividendlar to'lash manbai bank tasarrufida qoladigan sof foyda va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidir. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar bankning maxsus shu maqsadlar uchun mo'ljallangan fondlari hisobidan ham to'lanishi mumkin. Bankning sof foydasi bankning buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari asosida aniqlanadi.

2.5. Bank dividendlarni o'z faoliyati natijalari hamda o'rta va uzoq muddatli rivojlanish rejalarini hisobga olgan holda to'laydi.

2.6. Bank faqat e'lon qilingan dividendlarni to'laydi. Dividendlarni to'lash (e'lon qilish) to'g'risida qaror mavjud bo'lmagan taqdirda, bank dividendlar to'lashga, aksiyadorlar esa ularni talab qilishga haqli emas.

2.7. E'lon qilingan dividendlarni to'lash bankning majburiyati hisoblanadi. Bank dividend olish huquqiga ega shaxslar oldida ushbu majburiyatni bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

2.8. Bank Boshqaruvi e'lon qilingan dividendlarning o'z vaqtida va to'liq to'lanishini ta'minlaydi.

### **3-BOB. DIVIDEND SIYOSATINING PRINSIPLARI**

3.1. Bankning dividend siyosati quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

a) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va bank Ustavining talablariga rioya etish;

b) korporativ boshqaruvning yuqori standartlariga muvofiqlikka intilish;

c) bank rentabelligini oshirishda menejment va aksiyadorlarning manfaatdorligini ta'minlash;

d) bank va uning aksiyadorlarining qisqa muddatli va uzoq muddatli manfaatlarini optimal uyg'unlashtirish;

e) bankning investitsiyaviy jozibadorligi va kapitallashuvini oshirish;

f) dividendlar miqdorini aniqlash mexanizmi, ularni to'lash tartibi va muddatlarining maksimal shaffofligini ta'minlash;

g) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va korporativ boshqaruvning ilg'or amaliyotlarida nazarda tutilgan aksiyadorlar huquqlarini hurmat qilish va ularga qat'iy rioya etish.

3.2. Dividend to'lovlarining tavsiya etiladigan miqdori bankning moliyaviy faoliyati natijalari asosida bank Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

3.3. Kuzatuv kengashi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tavsiya etiladigan dividendlar miqdorini bank tomonidan joylashtirilgan aksiyalar turlari bo'yicha belgilashda quyidagi omillarni inobatga oladi:

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq tuzilgan bankning buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlariga ko'ra bankning sof foydasi miqdori;
- xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan bankning konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlari bo'yicha sof foyda miqdori;
- biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlash, strategiyani amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Markaziy bankning amaldagi va kelgusida kutilayotgan talablariga, shuningdek Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tavsiyalariga rioya etish uchun bankning kapitalga bo'lgan ehtiyoji;
- iqtisodiy kon'yunktura va operatsion muhitning holati va dinamikasi, bank faoliyati natijalariga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadigan yoki ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa tashqi va ichki o'zgarishlar;
- bankning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish zaruratini hisobga olgan holda bank va uning aksiyadorlari manfaatlarini muvozanatini saqlash;
- bank faoliyatiga va dividendlar miqdori to'g'risida qaror qabul qilishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa omillar.

#### **4-BOB. DIVIDENDLARNI TO'LASH TO'G'RSIDA QAROR QABUL QILISH TARTIBI**

4.1. Dividendlarni to'lash (e'lon qilish) to'g'risidagi qaror, jumladan dividendlar miqdori, ularni har bir turdagi aksiyalar bo'yicha to'lash tartibi va shakli bank Kuzatuv kengashining tavsiyasi hamda moliyaviy hisobot ma'lumotlari (agar ularning ishonchligi bo'yicha auditorlik xulosasi mavjud bo'lsa) asosida Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

4.2. Bank joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlarni hisobot yilining birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi va (yoki) hisobot yili yakunlari bo'yicha to'lash (e'lon qilish) to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

Hisobot yilining birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi yakunlari bo'yicha dividendlarni to'lash (e'lon qilish) to'g'risidagi qaror tegishli davr tugaganidan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

4.3. Aksiyadorlarga dividendlar to'lashning majburiy shartlari quyidagilardan iborat:

- dividendlar to'lanishi rejalashtirilayotgan davr yakunlariga ko'ra bankda sof foyda mavjud bo'lishi;

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq dividendlar to'lashga doir cheklovlarning mavjud emasligi.

4.4. Agar dividendlar to'lanishi bankning moliyaviy-xo'jalik holatining sezilarli darajada yomonlashuviga olib kelishi mumkin bo'lsa, dividendlar to'lash taqiqlanadi.

4.5. Dividendlar miqdori bank Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan oshmasligi kerak. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ayrim turdagi aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lamaslik, shuningdek bank Ustavida dividend miqdori belgilangan imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'liq bo'lmagan miqdorda to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Dividendlarni to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlarni to'lash boshlanishi va tugallanish sanalari ko'rsatilishi lozim.

4.6. Dividendlarni to'lash to'g'risidagi qaror bilan quyidagilar belgilanadi:

- har bir turdagi aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori;
- dividendlarni to'lash shakli;
- dividendlarni to'lash tartibi;
- dividend olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar aniqlanadigan sana.

4.7. Joylashtirilgan aksiyalar turlari bo'yicha dividendlarni to'lash to'g'risidagi qaror Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining kun tartibida alohida masala sifatida qabul qilinadi.

4.8. Hisobot yili yakunlari bo'yicha joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lash to'g'risidagi qaror Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida qabul qilinadi. Bank dividendlar miqdorini ulardan ushlab qolinadigan soliqlarni hisobga olmagan holda e'lon qiladi. Bank to'lanadigan dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni Yagona korporativ axborot portalida ([www.openinfo.uz](http://www.openinfo.uz)) va bankning rasmiy veb-saytida ([www.anorbank.uz](http://www.anorbank.uz)) e'lon qiladi.

4.9. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilinganligi va boshqa muhim axborot aksiyadorlar reestrada mobil telefon raqami va elektron pochta manzili mavjud bo'lgan taqdirda, mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 15 kun ichida aksiyadorlarga qisqa xabarlar (SMS) va (yoki) elektron pochta orqali yetkaziladi, bunda yuborish va yetkazib berilganligi fakti qayd etiladi.

## **5-BOB. DIVIDEND OLIISH HUQUQIGA EGA BO'LGAN SHAXSLAR**

5.1. Aksiyalar bo'yicha dividend olish huquqiga aksiyadorlarga dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilinganidan so'ng Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan bank aksiyadorlari reyestrada qayd etilgan shaxslar ega bo'ladi.

5.2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin shakllantirilgan bank aksiyadorlari reyestrada qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

5.3. Aksiyador o'z aksiyalariga bo'lgan huquqlarni hisobga olish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi investitsiya vositachisini o'z ma'lumotlaridagi o'zgarishlar haqida o'z vaqtida xabardor qilishi shart. Aksiyador tomonidan ma'lumotlaridagi o'zgarishlar haqida axborot taqdim etilmagan hollarda, investitsiya vositachisi ushbu sababli aksiyadorga yetkazilgan zararlar uchun javobgar bo'lmaydi.

5.4. Norezident aksiyadorlarga dividendlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi valyuta qonunchiligiga muvofiq to'lanadi.

5.5. Aksiyador dividend olish huquqini uchinchi shaxsga o'tkazishi mumkin emas, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan huquqiy vorislik holatlari mustasno.

## **6-BOB. DIVIDENDLARNI TO'LASH TARTIBI VA MUDDATLARI**

6.1. Dividendlar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga asosan, Bankning sof foydasidan to'lanadi. Dividend miqdori, to'lash shakli va muddatlari umumiy yig'ilish qarorida belgilanadi.

6.2. Bank e'lon qilingan dividendlarni Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori va bank Ustavida belgilangan hajmda va muddatlarda to'lashi shart. Dividendlarni to'lash muddati

dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 60 kundan kech bo'lmasligi lozim.

6.3. Dividendlar to'lanayotganda, birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar, keyin esa oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha belgilangan dividendlarni to'lash uchun yetarli foyda mavjud bo'lgan taqdirda, bank ushbu aksiyalar egalari oldida dividendlar to'lashdan bosh tortishga haqli emas. Bank tomonidan dividendlar to'lashdan bosh tortilgan taqdirda, aksiyadorlar sud tartibida dividendlarni to'lashni talab qilishlari mumkin. Bankda foyda yetarli bo'lmagan yoki zarar ko'rilgan hollarda imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar faqat shu maqsad uchun shakllantirilgan bankning zaxira fondi hisobidan va uning doirasida to'lanishi mumkin.

6.4. Bankning oddiy aksiyalari bo'yicha dividendlar quyidagi miqdorda to'lanadi:

- hisoblangan dividendlar aksiyalarning nominal qiymatidan 30 (o'ttiz) foizni tashkil qiladi.

Bankning imtiyozli aksiyalari bo'yicha dividendlar quyidagi miqdorda to'lanadi:

- hisoblangan dividendlar aksiyalarning nominal qiymatidan 25 (yigirma besh) foizni tashkil qiladi.

6.5. Bank dividendlarni to'lash majburiyatini dividendlarni to'lash muddati doirasidagi istalgan kunda bajarishga haqli.

6.6. Bank ayrim aksiyadorlarga e'lon qilingan va hisoblangan dividendlarni to'lash muddatlari bo'yicha hech qanday imtiyozli shartlarni taqdim etmaydi.

6.7. Har bir aksiyadorga to'lanadigan hisoblangan dividendlar summasi har bir aksiyalar toifasi bo'yicha alohida aniqlanadi va bitta aksiyaga to'g'ri keladigan dividend miqdorini aksiyadorga tegishli aksiyalar soniga ko'paytirish yo'li bilan hisoblab chiqiladi.

6.8. Dividendlar pul shaklida to'lanadi. Dividendlar to'lovlari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda Markaziy qimmatli qog'ozlar depozitariysi yoki investitsiya vositachilari orqali aksiyadorning mavjud bank hisobvaraqlariga avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Bunda aksiyadorlik jamiyati aksiyadordan dividendlarni to'lash to'g'risida ariza talab qilishga haqli emas.

6.9. Aksiyadorlar — jismoniy va yuridik shaxslar, ularning aksiyalarga bo'lgan huquqlari bank aksiyadorlari reyestrda hisobga olingan bo'lsa, dividendlar qonunchilikda, bank Ustavida hamda Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi AJ yoki investitsiya vositachilari bilan tuzilgan shartnomalarda belgilangan tartibda aksiyadorlarning bank hisobvaraqlariga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.

6.10. Bank O'zbekiston Respublikasi norezident aksiyadorining yozma talabiga ko'ra, unga hisoblangan dividendlarni erkin ayirboshlanadigan valyutaga konvertatsiya qilib, mablag'larni norezident aksiyador tomonidan taqdim etilgan bank hisobvarag'iga o'tkazib berishi shart. Konvertatsiya qilish uchun asos bo'lib bank tomonidan tasdiqlangan aksiyadorlar reyestrda ko'chirma hamda bank buxgalteriyasining hisoblangan dividendlar summasi va ularning hisoblangan sanasi ko'rsatilgan ma'lumotnomasi xizmat qiladi.

6.11. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan, bank e'lon qilingan dividendlarni aksiyalar bo'yicha to'lashga haqli bo'lmagan holatlar yuzaga kelganda, bank dividendlarni to'lashni to'xtatib turishi shart. Mazkur hollarda dividendlarni to'lashning to'xtatilishi aksiyadorlarni ushbu holatlar dividendlarni to'lashga to'sqinlik qiluvchi omillar

bartaraf etilgandan so'ng e'lon qilingan dividendlarni olish huquqidan mahrum etmaydi. Ko'rsatilgan holatlar tugatilgandan keyin bank aksiyadorlarga e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.

6.12. O'zbekiston Respublikasining soliq va yig'implar to'g'risidagi qonunchiligida belgilangan hollarda bank soliq agenti funksiyalarini bajaradi hamda dividendlar bo'yicha soliqlar summasini O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq hisoblaydi, ushlab qoladi va byudjetga o'tkazadi. Dividendlar aksiyadorlarga ushlab qolingani soliqlar summasi chegirilgan holda o'tkaziladi.

6.13. E'lon qilingan dividendlarning to'liq va o'z vaqtida to'lanishi uchun javobgarlik bankning ijro etuvchi organlariga yuklatiladi.

6.14. Dividendlarni to'lash bo'yicha bankning majburiyati dividend olish huquqiga ega bo'lgan shaxsning bank hisobvarag'i ochilgan kredit tashkilotiga pul mablag'lari kelib tushgan kundan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

6.15. Bank o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi hamda aksiyadorlar tegishli majburiyatlarning bajarilishini sud tartibida talab qilishga haqli.

## **7-BOB. DIVIDENDLARNI TO'LASHGA DOIR CHEKLOVLAR**

7.1. Dividendlarni to'lash (e'lon qilish) to'g'risida qaror qabul qilishda va dividendlarni to'lash jarayonida bank O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan cheklovlarga amal qiladi..

7.2. Bank quyidagi hollarda aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lashga va dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli emas:

- bank tashkil etilayotganda uning ustav fondi (ustav kapitali) to'liq shakllantirilmaguncha;
- dividendlarni to'lash paytida bankrotlik alomatlari mavjud bo'lsa yoki dividendlar to'lanishi natijasida bunday alomatlar yuzaga keladigan bo'lsa;
- bankning sof aktivlari qiymati uning ustav fondi (ustav kapitali) va zaxira fondi summasidan kam bo'lsa.

7.3. Bank quyidagi hollarda foydani aksiyadorlarga dividendlar to'lash yo'li bilan taqsimlashga haqli emas:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (keyingi o'rinlarda – Markaziy bank) tomonidan belgilangan prudensial normativlarga muvofiqlik ta'minlanmagan yoki mazkur taqsimot natijasida ushbu normativlar buzilsa;
- mazkur taqsimot natijasida to'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) yuzaga kelsa yoki uning alomatlari paydo bo'lsa;
- Markaziy bankning bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmasida, jumladan axborotni oshkor etish qismida ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilmagan yoki ularni bartaraf etish imkoni mavjud bo'lmasa;
- Markaziy bank tomonidan bankka foydani taqsimlamaslik to'g'risida talab qo'yilgan bo'lsa.

7.4. Bank quyidagi hollarda foydani taqsimlash uchun Markaziy bankning roziligini olishi shart:

- ushbu bobning birinchi qismi birinchi xatboshisida ko'rsatilgan to'lovlarning umumiy summasi bankning o'z kapitalining o'n foizidan oshsa;

- joriy yoki oldingi chorak va (yoki) moliyaviy yil yakunlari bo'yicha zarar mavjud bo'lsa.

7.5. Ushbu bobda ko'rsatilgan holatlar tugatilgandan so'ng bank aksiyadorlarga hisoblangan dividendlarni to'lashi shart.

## **8-BOB. AKSIYADORLARNI DIVIDEND SIYOSATI TO'G'RISIDA XABARDOR QILISH**

8.1. Bank aksiyadorlarni o'z dividend siyosati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda, shuningdek Internet tarmog'idagi bankning rasmiy veb-saytida ([www.anorbank.uz](http://www.anorbank.uz)) xabardor qiladi.

8.2. Bank veb-saytida joylashtiriladigan axborot tarkibiga ushbu Siyosat hamda unga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar kiradi.

8.3. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qaror qabul qilingandan so'ng mazkur axborot qonunchilikda belgilangan muddatlarda e'lon qilinadi.

8.4. Dividend siyosati va dividendlar to'lash to'g'risidagi axborot ochiq va barcha aksiyadorlar uchun teng sharoitda taqdim etiladi.

## **9-BOB. YAKUNIY QOIDALAR**

9.1. Ushbu Siyosat, shuningdek unga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar bank Kuzatuv kengashining qarori bilan tasdiqlanadi.

9.2. Ushbu Siyosatda nazarda tutilmagan barcha boshqa hollarda bank amaldagi qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.


9.3. Agar ushbu Siyosat qoidalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga yoki bank Ustaviga zid bo'lgan taqdirda, ushbu Siyosatga o'zgartirishlar kiritilgunga qadar tegishli O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va bank Ustaviga amal qilinadi.

Bunda bankning vakolatli organi ushbu Siyosatni qayta ko'rib chiqish va uni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va (yoki) bank Ustaviga muvofiqlashtirishni ta'minlaydi.

9.4. Ushbu Siyosat tasdiqlangan kundan e'tiboran Bank Kuzatuv Kengashining 2020 yil 10 sentyabrdagi 2-sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan "ANOR BANK" aksiyadorlik jamiyatining Dividend Siyosati o'z kuchini yo'qotadi.















### **Kiritildi:**

Qimmatli qog'ozlar boshqarmasi boshlig'i v.b.



Umarov N.E.

**Kelishildi:**

Boshqaruv raisi		Akramov Sh.S.
Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari		Nadjimitdinov E.R.
Boshqaruv raisi o'rinbosari		Kadirov E.R.
Boshqaruv raisi o'rinbosari		Saydullayev A.R.
Boshqaruv raisi o'rinbosari		Xan S.D.
Boshqaruv raisi o'rinbosari		Nurutdinova M.D.
Boshqaruvchi direktor		Bakiyev A.A.
Yuridik boshqarma boshlig'i		Zanaxov T.F.
Bosh buxgalter		Babayev U.M.
Ichki nazorat departamenti direktori		Pulatova M.T.
Ichki audit departamenti direktori		Usmanov S.A.
G'aznachilik departamenti direktori		Xidoyatova Sh.M.
Moliyaviy menejment boshqarmasi boshlig'i		Azimov S.S.
Risk menejmenti departamenti direktori v.b.		Muminov A.N.